

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA-TILI DARSLARIDA FE‘L SO‘Z TURKUMINING O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

F.P.Umurova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti f.f.f.d. dotsent v.b

To‘xtamurodova Zulfiya Qurbonmurod qizi

Boshlang‘ich yo‘nalish talabasi

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida fe‘l so‘z turkumini o‘rgatishning nazariy asoslari yoritiladi. Unda fe‘lning lingvistik xususiyatlari, o‘quvchilarning yosh va bilish imkoniyatlariga mos holda o‘qitish tamoyillari, izchillik va tizimlilik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, fe‘lni o‘rgatish orqali o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish, grammatik tushunchalarni shakllantirish va imloviy savodxonlikni oshirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Mazzuda fe‘lni bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasi va samarali mashq turlari haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *fe‘l, so‘z turkumi, harakat bildiruvchi so‘zlar, leksik ma‘no, grammatik ma‘no, zamon, shaxs-son, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘l, nutq rivoji, boshlang‘ich ta‘lim metodikasi, morfologiya*

Fe‘l ustida ishlashda izchillikni ta‘minlash, mavzular orasidagi uzviy bog‘lanishni saqlash, o‘quv materialini hajmini to‘g‘ri belgilash hamda har bir sinfda qo‘llaniladigan usul va vositalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon fe‘lni o‘rganish vazifalari, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

“Fe‘l” mavzusini o‘rganishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: o‘quvchilarda fe‘l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, ularning nutqini fe‘llar bilan boyitish, og‘zaki va yozma nutqda fe‘llardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, aqliy faoliyatni faollashtirish hamda grammatik bilimlar asosida imlo qoidalarini o‘zlashtirish. Ushbu vazifalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Fe‘lning lingvistik xususiyatlari murakkab bo‘lgani sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga uning eng muhim jihatlari sodda va tushunarli shaklda beriladi. Material tanlashda uning nutqni rivojlantirish va imlo ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati alohida e‘tiborga olinadi. Fe‘lni o‘rganishda izchillik 1-sinfдан boshlanadi. Bu jarayon savod o‘rgatish davridayoq yo‘lga qo‘yiladi. Dastlab o‘quvchilarning diqqati fe‘lning leksik ma‘nosiga, ya‘ni harakatni bildirish xususiyatiga qaratiladi. Shu asosda o‘quvchilar harakat bildiruvchi so‘zlar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘la boshlaydilar.

Mashg'ulotlar "Alifbe" materiallari, rasmlar asosida gap tuzish, savol-javob usullari orqali olib boriladi. O'quvchilar gap mazmuniga mos fe'lni tanlashga, so'zning nimani bildirayotganini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga o'rganadilar. Masalan: "Kuzda mevalar pishadi", "Sabzavotlar yetiladi", "Daraxt barglari sarg'ayadi" kabi gaplar tuzish orqali fe'llarning ma'nosi anglatiladi. Keyingi bosqichda o'quvchilarga "nima qilyapti?", "nima qildi?", "nima qiladi?" kabi so'roqlar yordamida fe'llarni aniqlash o'rgatiladi. Masalan: "yugurayapti", "yugurdi", "yuguradi" kabi misollar orqali fe'l zamonlari haqida boshlang'ich tushuncha beriladi. Shu bilan birga, faqat aniq harakatni emas, balki holatni bildiruvchi fe'llarni ham ajrata olishga o'rgatiladi: "uxlayapti", "o'ylayapti", "quvonadi" va boshqalar.

2-sinfda fe'lni o'rganish yanada kengaytiriladi. O'quvchilar fe'lning so'roqlari, gapdagi vazifasi va zamon shakllari bilan chuqurroq tanishadilar. Fe'llarning hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllarini farqlash, ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bosqichda fe'llarni gapda to'g'ri ishlatish, ularni boshqa so'z turkumlari bilan bog'lash ustida mashqlar olib boriladi.

3-sinfda fe'lning grammatik xususiyatlari yanada boyitiladi. O'quvchilar fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi, fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari bilan tanishadilar. Masalan: "keladi – kelmaydi", "o'qidi – o'qimadi" kabi misollar orqali inkor shakllari tushuntiriladi. Bundan tashqari, fe'llarning gapdagi o'rni va ahamiyati mustahkamlanadi.

4-sinfda esa fe'lga oid bilimlar tizimlashtiriladi va umumlashtiriladi. O'quvchilar fe'lning barcha o'rganilgan xususiyatlarini amaliyotda qo'llashga o'rganadilar. Murakkabroq gaplar tuzish, matn yaratish, fe'llarni to'g'ri tanlash va ularni nutqda o'rinli ishlatish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shuningdek, imlo qoidalariga rioya qilish, fe'llarning yozilishiga e'tibor qaratish ishlari davom ettiriladi.

Fe'lni o'rganish jarayoni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab olib boriladi. Har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasi inobatga olinib, mos metod va usullar qo'llanadi. Natijada o'quvchilarda fe'l haqida puxta bilim, to'g'ri nutq tuzish va fikrni aniq ifodalash ko'nikmalari shakllanadi.

Fe'lni o'rganishda izchillikni ta'minlash boshlang'ich ta'limda muhim metodik talablardan biridir. Ayniqsa, 1-sinfda fe'l ustida ishlash keyingi bosqichlar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Bu jarayon savod o'rgatish davridayoq boshlanib, dastlab o'quvchilarning e'tibori fe'lning leksik ma'nosiga, ya'ni harakatni ifodalash xususiyatiga qaratiladi. Shu orqali bolalarda harakatni bildiruvchi so'zlar haqida dastlabki tasavvur shakllantiriladi.

Dastlabki bosqichda fe'lning nazariy tomonlari emas, balki uning amaliy jihatlari ustida ishlanadi. O'quvchilarga predmetning harakati, holati va o'zgarishini ifodalovchi so'zlarni ajratish imkonini beradigan sodda va aniq materiallar tanlanadi. Mashg'ulotlar asosan "Alifbe" darsligidagi matnlar, rasmlar va mashqlar asosida tashkil etiladi.

Rasmga qarab gap tuzish, berilgan gapni to'ldirish, savollarga javob berish orqali o'quvchilar fe'llarni ongli ravishda qo'llay boshlaydilar. Masalan, kuz mavzusiga oid rasmlar asosida o'quvchilar "Kuzda mevalar pishadi", "Sabzavotlar yetiladi", "Daraxt barglari sarg'ayadi" kabi gaplarni tuzadilar. Shuningdek, "Bolalar nima qilyaptilar?" savoliga "o'ynayaptilar", "dam olyaptilar", "ishlayaptilar" kabi javoblar topish orqali fe'lning harakat bildirishi amalda mustahkamlanadi. Bu turdagi mashqlar o'quvchilarning kuzatuvchanligini, fikrlashini va nutqini rivojlantiradi.

1-sinfning ikkinchi yarmidan boshlab fe'lni o'rganish maqsadga yo'naltirilgan holda davom ettiriladi. Bu davrda "harakatni bildirgan so'zlar" mavzusi asosida fe'lning leksik va grammatik ma'nosi uyg'un holda tushuntiriladi. O'quvchilarga "nima qilyapti?", "nima qildi?", "nima qiladi?" kabi so'roqlar orqali fe'llarni aniqlash o'rgatiladi. Masalan: "yugurayapti", "arralayapti", "sakrayapti", "yugurdi", "arraladi", "sakradi", "yuguradi" kabi misollar orqali harakatning turli zamonlarda ifodalanishi sezdiriladi.

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlari bajarayotgan harakatlarni aytib berishlarini so'raydi. Ularning javoblari fe'l sifatida so'roqlari bilan birga doskaga yoziladi va tahlil qilinadi. Shu orqali o'quvchilar fe'lni amaliy yo'l bilan anglab boradilar. Bundan tashqari, faqat aniq harakatni emas, balki holatni bildiruvchi fe'llarni ham ajrata olishga o'rgatiladi: "uxlayapti", "o'ylayapti", "quvonadi" kabi misollar bunga xizmat qiladi. Bu esa harakat tushunchasini kengaytirib, nutqning boyishiga yordam beradi.

O'quv dasturiga ko'ra, o'quvchilarni so'zlarga so'roq berish va ularni bir-biridan farqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda fe'l va otni taqqoslashga oid mashqlar o'tkaziladi. Masalan, "nima?" so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar predmetni bildirsa, "nima qildi?", "nima qilyapti?", "nima qiladi?" so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar harakatni bildirishi tushuntiriladi. Bu taqqoslash o'quvchilarga so'z turkumlarini ajratish va ularning nutqdagi o'rnini tushunishga yordam beradi.

Fe'lga so'roq berishni o'rgatish jarayonida shaxs va sonni hisobga olish ham muhimdir. Ya'ni, harakatni bitta shaxs bajarsa "nima qildi?", "nima qilyapti?", "nima qiladi?" kabi so'roqlar, bir nechta shaxs bajarsa "nima qildilar?", "nima qilyaptilar?", "nima qiladilar?" kabi shakllar qo'llanadi. Bu esa o'quvchilarni keyinchalik fe'l zamonlari va shaxs-son qo'shimchalarini o'rganishga tayyorlaydi.

1-sinfda morfologik so'roq so'zning nimani bildirayotganini aniqlash uchun qo'llanadi. O'quvchilar so'zga to'g'ri savol berishga, savolga mos so'z tanlashga va kerak bo'lsa, so'zni o'zgartirishga o'rganadilar. Masalan: "nima qildi? — o'qidi?", "nima qilamiz? — o'qiyamiz", "nima qilmoqchi? — o'qimoqchi" kabi mashqlar orqali fe'l shakllari sezdiriladi.

2–3-sinflarda fe'lni o'rganish yanada tizimli tus oladi. Bu bosqichda "fe'l — so'z turkumi" degan tushuncha shakllantiriladi. O'quvchilar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni

farqlashni, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma) ning talaffuzi va yozilishini o'zlashtiradilar. Masalan: “keldi — kelmadi”, “yozdi — yozmadi” kabi juftliklar orqali inkor shakli tushuntiriladi. Fe'ning mazmunini chuqurroq anglatish uchun o'qituvchi dars jarayonining o'zini tasvirlash usulidan foydalanadi. Masalan, “O'qituvchi nima qildi?”, “O'quvchilar nima qildilar?”, “Hozir nima qilyapti?”, “Keyin nima qiladi?” kabi savollar orqali o'quvchilar o'z faoliyatlarini ifodalaydilar. Ularning javoblari doskaga yozilib, so'roqlari bilan birga tahlil qilinadi.

Shu asosda xulosa chiqariladi: predmetning harakatini bildirgan va “nima qildi?”, “nima qilyapti?”, “nima qiladi?” kabi so'roqlarga javob bo'lgan so'zlar fe'l deyiladi. Shuningdek, fe'l gapda asosan kesim vazifasida kelishi ham amaliy misollar orqali ko'rsatib beriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun turli mashq turlaridan foydalaniladi. Fe'lni so'roq orqali topish, gap mazmuniga mos fe'lni qo'yish, aralash berilgan so'zlardan gap tuzish, rasm asosida hikoya tuzish va boshqalar. Bunday mashqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, nutqini boyitadi va grammatik bilimlarini mustahkamlaydi. Fe'lni o'rganish jarayoni bosqichma-bosqich, sodda tushunchalardan murakkabroq bilimlarga o'tish tamoyili asosida tashkil etiladi. Natijada o'quvchilarda fe'l haqida puxta bilim, to'g'ri va ravon nutq tuzish ko'nikmasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda fe'l so'z turkumini o'rgatish o'quvchilarning nutqini rivojlantirish va grammatik savodxonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Fe'lni o'rganish jarayoni izchil, tizimli va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Darslarda nazariy bilimlar amaliy mashqlar bilan uyg'unlashtirilsa, o'quvchilar fe'lning ma'nosi, shakllari va nutqdagi vazifasini puxta o'zlashtiradilar. Natijada ular o'z fikrini aniq, ravon va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. – T.: «O'qituvchi», 1993. 33-37 b.
2. Nurmanov V., R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. –T.: «O'qituvchi», 1999. 27-30 b.
3. Ro'ziboeva O'. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T.: «O'zbekiston», 2001. 77-79 b.
4. Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – T.: «Sharq», 2003. 32-34 b.
5. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1995. 177-184 b.
6. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «Nosir», 2009. 13—136 b.

7. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. – T.: «O'qituvchi», 1992. 57-59 b.
8. G'affarova T. va boshq. Savod o'rgatish. – T.: 1997. 41-44 b.
9. G'ulomov M. Husnixat metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1993. 20-25 b.
10. G'afforova T. va boshq. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. 10-nashr. –T.: “Sharq” 2014.